



ZAMONAVIY IJTIMOY MUAMMOLARNI TUSHUNISHDA MAHALLIY URF-ODATLARNING AHAMIYATI

Sherzodjon Umaraliyev

O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi

“Islomshunoslik va islom sivilizatsiyasini

o'rganish ICESCO” kafedrasini

dotsenti v.b., PhD

Mirzakamol Mirzag'aniyev

O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi

“Islomshunoslik” yo'nalishi 4-kurs talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20710836>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 1-iyun 2026 yil
Ma'qullandi: 5-iyun 2026 yil
Nashr qilindi: 16-iyun 2026 yil

KEY WORDS

Qur'on, sunnat, hanafiy, fiqh, urf, O'zbekiston, zamonaviy fiqhiy muammolar

ABSTRACT

Mazkur maqolada hanafiy mazhabi usul ilmida mahalliy urfga bo'lgan munosabat, uning ahamiyati hamda bugungi kunda mahalliy urf-odatlarining islom huquqiga doir zamonaviy muammolarga yechim berishdagi o'rni, mahalliy urf-odatlarni inobatga olmasdan turli fatvolarni berishni zararli oqibatlari, urfning Qur'on va hadislarda ta'kidlangan jihatlari tahlil qilingan.

Kirish

Islom huquqida ijtimoiy muammolarga Qur'on, sunnat, ijmo va qiyosga o'xshash birlamchi manbalar orqali yechim berilishi bilan birga, mahalliy urf-odatlar ham e'tibor qaratiladi. Zero, insonlar o'zaro muloqotni o'zlari tushunadigan tilda olib boradilar. Mahalliy urf-odatlar orqali ijtimoiy hayotda qulay va to'g'ri bo'lgan ishlarni amalga oshiradilar. Odatda insonlarga zararli bo'lgan ishlar jamiyatda uzoq saqlanib qolmaydi. Qur'on va hadislardagi ma'nolarni insonlar ongiga oson yetkazish uchun mahalliy urf-odatlarini yaxshi bilish talab etiladi.

Hanafiy mazhabi olimlari urfni hukm olinuvchi manba sifatida tan olganlar. Uning dalil bo'la olishi Qur'on va sunnatda vorid bo'lgan. Jumladan, Qur'oni karimning A'rof surasi, 199-oyatida shunday marhamat qilinadi:

“خُذِ الْعَفْوَ وَأْمُرْ بِالْعُرْفِ وَأَعْرِضْ عَنِ الْجَاهِلِينَ”

Ya'ni: *(Ey Muhammad), kechirimli bo'ling, ma'rufga buyuring va johillardan yuz o'giring).*

Ushbu oyatdagi “ma'ruf” so'zidan urf taqozo qilgan ish tushuniladi.

Hadisi sharifda esa: “Musulmonlar yaxshi deb bilgan narsa — Alloh huzurida ham yaxshidir”, deb marhamat qilingan. Ushbu hadisni ayrim olimlar sahoba Abdulloh ibn Mas'ud raziyallohu anhuga ham nisbat beradilar.

XIX asrda yashagan hanafiylardan Alloma Ibn Obidin rahmatullohi alayhi zamonaviy masalalarni tushunishda urfni bilish zaruriyati haqida quyidagilarni aytgan: *“Urfni bilmagan muftiy xalqning ehtiyojlarini anglay olmaydi, ulamo bilan xalq o'rtasida tafovut yuzaga keladi. Muftiy va xalq bir yo'nalishda yursa-da, ular orasida ijtimoiy masofa saqlanib qoladi. Urf — mana shu masofani yaqinlashtiruvchi ko'prikdir”*.

Hanafiy olimlari urfni dalil sifatida qo'llash uchun ikki asosiy shartni o'rnatganlar:

Birinchi, “istiqror” (davomiylik) — urf uzoq muddat davom etib, jamiyatda barqaror bo'lishi kerak;

Ikkinchi, “g'olaba” (keng yoyilish) — urf umumiy bo'lib, faqat ayrim kishilar orasida emas, balki keng omma tomonidan amal qilinishi lozim.

Masalan, savdoda sotuvchi “Uyni 50 mingga sotdim” desa-yu, qaysi pul birligi ekanini zikr qilmasa, ushbu bitim mahalliy urf asosida hal etiladi. Agar uylar mahalliy pul birligida sotilishi urf bo'lgan bo'lsa mahalliy pul birligiga, xorijiy valyutaga asosan odatga aylangan bo'lsa xorijiy valyutaga binoan sotilgan, deb hisoblanadi.

Hozirgi kunda ham ijtimoiy hayotda yangi paydo bo'lgan masalalarni tushunishda urf bir necha jihatlarida muhim sanaladi. Agar inson qadimgi manbalarda zikr etilgan iboralar asosida bugungi kun masalalariga yechim izlasa, turli muammolarga duch keladi.

Misol uchun, Payg'ambar alayhissalom zamonlarida bug'doy va arpaga o'xshash narsalar “so” deb nomlangan og'irlik o'lchov birligi bilan sotilgan. Bir so' bug'doy faqatgina bir so' bug'doyga teng shaklda, nasiyaga berilmasdan sotilishi ta'kidlangan. Keyingi davrlarda bunday mahsulotlar kiloga o'xshash yangi turdagi o'lchov birliklari bilan sotila boshlandi. Bir so' – hozirda 3,66 kg ga teng keladi. Vaholanki, hadislarda kilo yoki tonna kabi yangi turdagi o'lchov birliklari haqida so'z yuritilmagan. Ushbu holatda bug'doy va arpa savdosida hadisdagi so' deyilgan o'lchov birligini saqlab qolish majburiymi yoki yangi turdagi o'lchov birliklari bilan ham savdo qilsa bo'ladimi? - degan savol tug'ilishi tabiiy. Bunday holatda “so” kalimasi ma'lum bir davrda urf bo'lgan narsa ekani, yangi turdagi o'lchov birliklari uning vazifasini bajarishi mumkinligini fahmlash zarur hisoblanadi.

Mahalliy urf oyat va hadisdagi buyruq va qaytariqlarga teskari ma'noni bildiruvchi hukmlarni ham ifodalashi mumkin. Misol uchun, oyatdagi **“Ota-onangizga uff demang”** jumlasidagi “uff” iborasi ayrim xalqlar nazdida hurmatni ifodalovchi lafz bo'lsa, ishlatilishi mumkin deyilgan.

Yana, hadisi sharifda “ma'dum”, ya'ni hali mavjud bo'lmagan narsani sotishdan qaytarilgan. Daraxtdagi chala yetilgan, hali pishib ulgurmagan mevalar ham to'liq shaklga kirmagani uchun ularni sotish, xuddi hali bir qismi mavjud bo'lmagan narsani sotishdek gap. Biroq, hanafiy va molikiy mazhabi ulamolari urfga binoan, daraxtdagi chala pishgan mevalarni sotishga ruxsat berganlar.

Mahalliy urf-odatlar ibodatlariga ham ta'sir ko'rsatadi. Jumladan, ro'za tutgan kishining tishlari orasida qolib ketgan go'shtni yutib yuborishiga VIII asrda yashagan Imom Zufar ibn Huzayl ro'zani buzadi, deb fatvo bergan bo'lsa, XVI asrda yashagan Kamol ibn Humom buzmaydi, deb fatvo bergan. Ibn Humomga ko'ra, avvalgi zamonda ushbu ish oddiy oziqlanish ko'rinishi bo'lgan, uning davriga kelib bunday ish inson tabiatiga zid hamda noodatiy oziqlanish turiga aylangan. Natijada, shu ko'rinishda oziqlanish odatdan tashqariga aylangani tufayli ro'zani buzmaydigan hukmni olgan.

Mahalliy an'analar qoidalarni o'zgartirishga ham sabab bo'la oladi. Masalan, hanafiy faqihlari bir ishga yollangan ishchi o'zi bajargan ishdan haq olishi mumkin emas, deb aytadilar. Jumladan, qassob o'zi so'ygan hayvon go'shtidan xizmat haqi ololmaydi, deb belgilangan. Shuningdek, to'quvchi o'zi to'qigan kiyimidan ortgan matoni xizmat haqi sifatida qabul qilmaydi. Ammo Balx shahri faqihlari Balx aholisining to'quvchiga o'zi to'qigan matosidan haq olishiga eskidan odatlanib kelganlari uchun, zarurat yuzasidan ushbu ishning joizligiga fatvo berganlar. Mazkur fatvo ma'lum bir shahar aholisiga, ma'lum bir davr uchun tegishli bo'lgan xolos. Ushbu hukmni keyingi davr yoki boshqa xalqlarga qo'llash to'g'ri bo'lmaydi.

Bugungi kun yirik hanafiy olimlaridan Alloma Taqiy Usmoniy ham tilla savdosi bilan shug'ullanuvchilar o'rtasida tillani nasiya savdoga berish odatga aylanib ulgurani, ushbu holat tillani nasiyaga berib bo'lmashligi haqidagi an'anaviy fatvoga zid kelsa ham uning joiz bo'lishiga olib kelganini ta'kidlamoqda.

Yana bir boshqa misol, hozirda muzlatgich, televizor, kir yuvish mashinasiga o'xshash tovarlarni ishlatish davomida yuzaga kelgan nosozliklarini tuzatish xarajatining sotuvchiga yuklatishilishi joiz deb topilgan. Vaholanki, ushbu hukm ham fiqhiy kitoblarda zikr qilingan fatvolarga batamom zid sanaladi. Chunki insonlar mana shu narsaga odatlandilar. Endilikda sotuvchi elektronika tovarlarda yuzaga keluvchi nosozliklarni bartaraf etishni zimmasiga olmasa, xaridorlar ishonchsizlik bildirib, bunday savdodan o'zlarini olib qochmoqdalar. Natijada, mana shunday shartlarni qo'shimcha qilish orqali savdo qilish urfning taqozosi bilan zaruratga aylandi.

Shunga o'xshash misollar juda ko'p bo'lib, ular mahalliy urf-odatlarining islom huquqi ahkomlarini to'g'ri talqin etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa

Afsuski, bugungi kunda ayrim kishilar islom ta'limotlarini o'rganish hamda talqin etishda muhalliy urf-odatlarini nazardan chetda qoldirmoqdalar. Mahalliy an'analar ular uchun go'yoki bid'at bo'lib, islom ta'limotida ularga o'rin yo'qdek munosabatda bo'lmoqdalar. Bunday yondashuv mutlaqo noto'g'ri bo'lib, urfni hisobga olmay fatvo berish Qur'on va sunnat iroda qilgan ma'noga butunlay teskari xulosani keltirib chiqaradi.

Eng muhim jihatlardan biri, mahalliy urf-odatlarini hisobga olgan holda muammoga yechim izlash insonlarga yengillik olib keladi. Zero, islom dini yengillik berishga chaqiradi, og'irlashtirishga emas.

Yana shuningdek, mahalliy urf-odatlarini yaxshi tushunish uchun fatvo beruvchi o'z yurti olimlaridan mahalliy muammolarning sabab va oqibatlarini yaxshi o'zlashtirgan bo'lishi lozim. O'zga yurtdan ustoz topib olib, mahalliy olimlarni mensimay, Qur'on va sunnatni ko'r-ko'rona talqin etish aynan noaniq va noxolis fikrlarning yuzaga kelishiga olib keladi. Mana shu nuqtai nazardan zamonaviy ijtimoiy muammolarni tushunishda mahalliy urf-odatlarining ahamiyati yuqori sanaladi.